



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-dekabr*



NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **1 094,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **19,4** ming kishiga yoki **1,8 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **539,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,3 %**), qishloq aholisi soni **555,5** ming kishi (**50,7 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1 094,7 ^{ming}
kishi

Tabiiy o'sish

+20,9 ^{ming}
kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



49,3 %

Qishloq



50,7 %


Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2025- yil 1- yanvar holatiga



2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **31,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2025- yil 1- yanvar holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, kishi

| | 2024- yil | 2025- yil | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|------------------|------------------|-------------------------|
| Navoiy viloyati | 1 075 268 | 1 094 705 | 101,8 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Navoiy sh. | 161 243 | 166 492 | 103,3 |
| Zarafshon sh. | 88 419 | 90 407 | 102,2 |
| G'ozg'on sh. | 9 248 | 9 356 | 101,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Karmana | 138 767 | 141 773 | 102,2 |
| Konimex | 37 409 | 37 203 | 99,4 |
| Qiziltepa | 161 783 | 164 586 | 101,7 |
| Navbahor | 120 809 | 122 696 | 101,6 |
| Nurota | 89 546 | 90 772 | 101,4 |
| Tomdi | 15 525 | 15 289 | 98,5 |
| Uchquduq | 39 292 | 39 704 | 101,0 |
| Xatirchi | 213 227 | 216 427 | 101,5 |

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **9,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **9,7** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4 240,2** kishi hamda Navoiy shahrida **2 663,6 kishi** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,9** kishi va Konimex tumanida **4,0** kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Tug'ilganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart




Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



Yanvar-dekabr



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi

| Hudud nomi | Tug'ilganlar soni | Koeffitsiyenti (%) |
|---------------|-------------------|--------------------|
| Xatirchi | 5216 | 24,3 % |
| Navoiy sh. | 4433 | 27,1 % |
| Qiziltepa | 3890 | 23,8 % |
| Karmana | 3307 | 23,6 % |
| Navbahor | 2763 | 22,7 % |
| Nurota | 2270 | 25,2 % |
| Zarafshon sh. | 2088 | 23,4 % |
| Uchquduq | 728 | 18,4 % |
| Konimex | 699 | 18,7 % |
| Tomdi | 202 | 13,1 % |
| G'ozg'on sh. | 167 | 18,0 % |

2024- yil yanvar-dekabr oylarida **25 763** ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,7** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **25,2** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi


Yanvar-mart

Erkaklar 658 Ayollar 522




Yanvar-iyun

Erkaklar 1 286 Ayollar 963




Yanvar-sentabr

Erkaklar 2 169 Ayollar 1 582



Yanvar-dekabr

Erkaklar 2 799 Ayollar 2 082



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi


| | | |
|---------------|------|-------|
| Xatirchi | 1005 | 4,7 ‰ |
| Navoiy sh. | 748 | 4,6 ‰ |
| Karmana | 698 | 5,0 ‰ |
| Qiziltepa | 684 | 4,2 ‰ |
| Navbahor | 566 | 4,6 ‰ |
| Nurota | 449 | 5,0 ‰ |
| Zarafshon sh. | 257 | 2,9 ‰ |
| Konimex | 240 | 6,4 ‰ |
| Uchquduq | 125 | 3,2 ‰ |
| Tomdi | 65 | 4,2 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 44 | 4,7 ‰ |

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 4 881 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr, kishi

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **64,6** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,8** % i – o‘simtalardan, **4,3** % i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **7,8** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,6** % i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,6** % i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **11,3** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-dekabr, birlik

| | | |
|---------------|-------|-------|
| Xatirchi | 1 462 | 6,8 ‰ |
| Navoiy sh. | 1 451 | 8,9 ‰ |
| Qiziltepa | 1 122 | 6,9 ‰ |
| Karmana | 1 038 | 7,4 ‰ |
| Navbahor | 818 | 6,7 ‰ |
| Nurota | 616 | 6,8 ‰ |
| Zarafshon sh. | 524 | 5,9 ‰ |
| Konimex | 208 | 5,6 ‰ |
| Uchquduq | 199 | 5,0 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 51 | 5,5 ‰ |
| Tomdi | 49 | 3,2 ‰ |


Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr




Yanvar-dekabr



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **7 538** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,5** promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Shahar
175



56,5 %

Qishloq
135



43,5 %

Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, birlik

| | | |
|---------------|-----|-------|
| Navoiy sh. | 282 | 1,7 ‰ |
| Karmana | 232 | 1,7 ‰ |
| Xatirchi | 220 | 1,0 ‰ |
| Qiziltepa | 169 | 1,0 ‰ |
| Navbahor | 117 | 1,0 ‰ |
| Zarafshon sh. | 81 | 0,9 ‰ |
| Nurota | 66 | 0,7 ‰ |
| Uchquduq | 47 | 1,2 ‰ |
| Konimex | 38 | 1,0 ‰ |
| Tomdi | 4 | 0,3 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 2 | 0,2 ‰ |

Yanvar-iyun

Shahar
342



58,2 %

Qishloq
246



41,8 %

Yanvar-sentabr

Shahar
529



57,9 %

Qishloq
385



42,1 %

Yanvar-dekabr

Shahar
707



56,2 %

Qishloq
551




43,8 %

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **1 258** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,4** promille bo'lgan).


Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **49,6 %** i farzandsiz, **27,8 %** i bitta farzand bilan va **22,6 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart

Erkaklar 1 457
Ayollar 1 451



50,1 % 49,9 %

Yanvar-iyun

Erkaklar 2 950
Ayollar 2 975



49,8 % 50,2 %

Yanvar-sentabr

Erkaklar 4 528
Ayollar 4 734



48,9 % 51,1 %

Yanvar-dekabr

Erkaklar 6 066
Ayollar 6 275



49,2 % 50,8 %


Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi

| | | |
|---------------|-------|--------|
| Navoiy sh. | 5 067 | 30,9 ‰ |
| Zarafshon sh. | 2 177 | 24,3 ‰ |
| Karmana | 1 935 | 13,8 ‰ |
| Uchquduq | 787 | 19,9 ‰ |
| Qiziltepa | 703 | 4,3 ‰ |
| Xatirchi | 678 | 3,2 ‰ |
| Navbahor | 558 | 4,6 ‰ |
| Nurota | 219 | 2,4 ‰ |
| Tomdi | 160 | 10,4 ‰ |
| Konimex | 37 | 1,0 ‰ |
| G'ozg'on sh. | 20 | 2,2 ‰ |

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 12 341 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 11,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,5 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 9,9 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yanvar-mart


Erkaklar 1 471
Ayollar 1 469



50,0 % **50,0 %**

Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **13 786** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **12,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,5** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **12,2** promille bo'lgan).

Yanvar-iyun

Erkaklar 3 103
Ayollar 3 223



49,1 % **50,9 %**

Yanvar-sentabr

Erkaklar 5 100
Ayollar 5 375



48,7 % **51,3 %**

Yanvar-dekabr

Erkaklar 6 710
Ayollar 7 076



48,7 % **51,3 %**

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1 000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1 000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi

Tel: 79 223-07-41